



**ZULFIYA IJODIDA TABIAT RASVIRI VA INSON RUHIYATIDAGI
UYG'UNLIK**

Iskandarova Marjona

Buxoro shahar Osiyo xalqaro universiteti 3-Ft(o')-25 guruhi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, shoira Zulfiya Isroilova she'riy merosida tabiat tasvirining badiiy-estetik mohiyati keng yoritiladi. Shoira ijodida tabiat oddiy fon vazifasini bajarmay, balki inson qalbi, ayol kechinmalari hamda ma'naviy olam bilan uzviy bog'langan tirik poetik obraz sifatida talqin etiladi. Shoiraning she'rlari misolida peyzaj unsurlarining nafaqat badiiy bezak, balki ruhiy holat ifodachisi sifatidagi vazifasi ochib beriladi. Tabiat obrazlari orqali lirik qahramonning ichki dunyosi, kechinmalari va hayot falsafasi ifodalanishi yoritiladi.*

Tayanch so'zlar: *Zulfiya, peyzaj, tabiat tasviri, ruhiyat, lirika, badiiy obraz, uyg'unlik, poetik tafakkur.*

Kirish: Badiiy adabiyotda tabiat tasviri – peyzaj – inson ruhiy olamini ochib beruvchi muhim vositalardan biridir. Ayniqsa lirika janrida tabiat unsurlari shoira qalbining aks-sadosi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek she'riyatida bu jihat eng yorqin ko'ringan ijodkorlardan biri Zulfiya hisoblanadi. Shoira tabiatni faqat fon sifatida emas, balki inson ruhiyati bilan hamohang yashovchi tirik obraz sifatida talqin qiladi. Uning “Bahor”, “Tun”, “Yomg'ir”, “Tong nafasi”, “Bahor keldi seni so'roqlab”, “Kuz ohangi” singari she'rlarida tabiat obrazlari orqali inson qalbining kechinmalari, orzu-armonlari, ruhiy iztiroblari hamda muhabbat tuyg'ulari badiiy ifodaga ega bo'ladi.

Tadqiqot natijalari va muhokama: Zulfiya she'riyatining shakllanishida uning bolalik muhitining o'рни beqiyosdir. Shoiraning so'z, she'r va adabiyotga bo'lgan mehri erta yoshdayoq oilasidagi ma'naviy muhit ta'sirida shakllangani tabiiy. Ayniqsa, bunda onasi Xadichabeginning ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi. Zulfiya o'z tarjimai holida bu haqda shunday yozadi:

“Onamning qanchadan-qancha qo'shiq va afsonalarni bilishiga aqlimiz bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va dostonlar bizga benihoya huzur bag'ishlar, o'ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etar edi. Hozirgidek charog'on davrda yashasa, onam yo shoira, yo olima bo'lardi. Shunga aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbimda maktab ko'rmagan ana shu onam uyg'otgandi.”

Mazkur e'tirof shoiraning poetik tafakkuri shakllanishida og'zaki ijod, xalqona tasavvurlar va badiiy so'z sehrining muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Shu bois uning lirikasida tabiat manzaralari ham ko'pincha xalqona ruh, samimiyluk va ichki kechinmalar bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi.



Zulfiya she'riyatida tabiat ko'pincha inson qalbining ko'zgusiga aylanadi. Bahor tasviri – umid va yangilanish, kuz – xotira va sokin iztirob, qish – sog'inch va sabr, yoz esa hayot shijoati ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Shoiri fasllar almashinuvini inson ruhiy holatlari bilan uyg'un holda tasvirlaydi.

Uning ko'plab she'rlarida bahor kelishi shunchaki fasl almashinuvi emas, balki qalb uyg'onishi, orzular jonlanishi sifatida talqin etiladi. Gullar ochilishi – inson qalbidagi muhabbat, yomg'ir – sog'inch yuki, shabada esa xotira nafasi sifatida poetik ma'no kasb etadi. Masalan, "Bugun tunda kelarmish, Bahor..." she'rida asosiy mavzu — bahorning kelishi va uning hayotga olib keladigan yangiliklari, go'zalliklari. Shoiri bahorni shunchaki tabiat hodisasi sifatida emas, balki qalbdagi his-tuyg'ular bilan uyg'unlashgan hodisa sifatida ko'rsatadi:

Qoru muzni suvga g'arq qilib,
Izg'irinni butkul tark qilib,
Eshitgandek mening nola'mni,
Guldastaga o'rab olamni -
Tushda boshing silarmish bahor,
Bugun tunda kelarmish bahor...

Ushbu bandda qishning sovuqligi va qoraligi bahorning issiqligi va yorqinligi bilan o'rnini almashadi. Bu yerda bahor faqat fasl emas, balki hayotiy quvonch va yangilanish ramzi sifatida berilgan.

Zulfiyaning yana bir ijodi "Bahor keldi seni so'roqlab..." she'ri shoiraning tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi uyg'unlikni ifodalashdagi badiiy mahoratini yaqqol namoyon etadi. Asarda bahor fasli oddiy tabiiy hodisa sifatida emas, balki inson qalbidagi sog'inch, mehr va ichki uyg'onish jarayonining ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Asarda bahor fasli biologik yangilanish manzarasi sifatida emas, balki sog'inch, xotira va ichki ruhiy uyg'onish ramzi sifatida talqin qilinadi. Qushlar parvozi, gullarning ochilishi, shamolning izlash harakati kabi peyzaj detallarining dinamik berilishi lirik qahramon qalbidagi iztirob va kutish holatlari bilan uyg'unlashadi.

...Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

She'rda berilgan tabiat tasvirlari — salqin saharlar, bodom gullari, qushlar parvozi, mayin shamollar — tabiatning jonlanishini ko'rsatadi. Tabiat uyg'onishi bilan qalb ham his-tuyg'ular bilan to'ladi, ya'ni tashqi olam va ichki kechinmalar parallel rivojlanadi. She'rda qishning chekinishi, bahorning izlab kelishi motivlari orqali ichki sog'inch va kutish holati ifodalanadi. Bahor tashqi yangilanishni bildirsa, qalbdagi tuyg'ular esa ma'naviy yangilanishni anglatadi. Shu tariqa tabiat tasviri inson ruhiyatining poetik ko'zgusiga aylanadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Zulfiya lirikasida tabiat tasviri shunchaki dekorativ fon emas, balki inson qalbining ichki holatini ochuvchi badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shoiraning "Oydinda", "Tun", "Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh", "Bog'lar qiyg'os gulda" kabi she'rlarida peyzaj obrazlari ruhiy kechinmalar bilan uzviy bog'langan holda tasvirlanadi.

"Oydinda" she'rida oy nuri, suvdagi aks, shabnam va yulduzlar tasviri orqali insonning o'zini anglash jarayoni beriladi. Tabiat bu yerda tashqi manzara emas, balki o'zlik bilan uchrashuv makonidir. Shoira suv tubidan o'z aksini ko'rishi orqali ichki dunyo bilan muloqotga kiradi. Demak, oy nuri ruhiy poklanish va tafakkur ramziga aylanadi.

"Tun" she'rida esa tabiat ijodiy ruhiyat bilan uyg'unlashadi. Sokin chorbog', yel shovqini, suvning allalashi — bularning barchasi lirik qahramon tafakkurining uyg'unishiga xizmat qiladi. Tun uyqu emas, balki ilhom makoni sifatida talqin qilinadi. Yulduzlar ertak so'ylashi, parvonaning chiroqqa intilishi kabi tasvirlar ijodiy izlanish va ruhiy yonish holatini ifodalaydi.

"Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh" she'rida tabiat tasviri ruhiy iztirob bilan uyg'unlashadi. Osmon, bulut va yomg'ir motivlari lirik qahramonning ichki qayg'usi bilan parallel tasvirlanadi. Tabiat go'yo inson dardiga hamdard bo'lib, bulutning yig'lashi qalbida iztirobni kuchaytiruvchi poetik vositaga aylanadi.

Umuman olganda, Zulfiya lirikasida tabiat tasviri uch xil vazifani bajaradi:

- inson ruhiy kechinmalarining ko'zgusi bo'ladi;
- ijodiy tafakkur va ichki uyg'unish makoni vazifasini bajaradi;
- falsafiy hamda ijtimoiy g'oyalarni ifodalovchi ramziy tizimga aylanadi.

Shu bois shoira ijodida peyzaj tasviri va inson ruhiyati o'rtasidagi uyg'unlik uning poetik uslubini belgilovchi asosiy xususiyatlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilganda, Zulfiya lirikasining tahlili shuni ko'rsatadiki, tabiat obrazlari inson ruhiy kechinmalarini ochish, ichki iztirob va quvonchlarni ifodalash hamda falsafiy umumlashmalar yaratishda muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Oy, tun, bahor, kuz, shamol, osmon, gul, daraxt kabi tabiat unsurlari orqali lirik qahramonning o'zlikni anglash jarayoni, sog'inch, umid, ijodiy uyg'unish va ma'naviy poklanish holatlari tasvirlanadi. Shu bois Zulfiya ijodida tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi uyg'unlik shoiraning individual uslubini belgilovchi asosiy poetik tamoyillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adham Akbarov. Zulfiya. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985-yil
2. Adiblar Uz. "Bugun tunda kelarmish, Bahor..." / Internet sayti: adiblar.gitbook.io
3. Sputnik O'zbekiston. Zulfiya - bibliografiya / Internet sayti: oz.sputniknews.uz